



Po'lat o'tda toblanadi, odam – mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 27-fevral № 2 (1536)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



KIRIB KELAYOTGAN BAYRAMLAR MUBORAK BO'LSIN!

Hurmatli metallurglar, hamkasblar!

Yurtimizga bahor fasli har yili yangicha shukuh bilan kirib keladi. Bahorning o'lkamizga tashrifida go'zalliklar, ko'rkamliklar, yangilanishlar namoyon bo'ladi. Odamlarga bayramona kayfiyat baxsh etadi. Ayniqsa, mart oyi yurtimizda tantanalar, bayramlar, shodiyonalar oyi sifatida e'tirof etiladi. Bu oyda nishonlanadigan bayramlar barchamizga muborak bo'lsin!

Aziz metallurg opa-singillar!

Tabiat uyg'onib, yasharish va go'zallik fasli bo'lgan bahor kunlarida nishonlanadigan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan sizlarni va barcha Bekobod shahri ayollarini chin qalbidan tabriklash va eng yaxshi tilaklarimni bildirish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Bugungi kunda Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rin va mavqega ega. Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda mehnat qilib kelishmoqda.

Tengsiz latofat va nafosat sohibasi, ezgulik va fidoyilik ramzi bo'lish bilan birga sizlar og'ir sanoatda, shu jumladan

metallurgiya sohasida erkaklar bilan yonma yon ishlamoqdasizlar. Shu bilan birga xonadonlarimizning fayzu farishtasiz. Sizlarni kombinat va jamoat ishlarida fidoyi, uyda oqila ayol va farzandlar tarbiyasida zukko, g'amxo'r ona, yaqin maslahatguy sifatida juda qadrlaymiz.

Ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligi masalalari davlat darajasida asosiy masalalar qatoridan o'rin olgan. "O'zmetkombinat" AJda ham xotin-qizlarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ijtimoiy muammolarini hal etishga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratiladi.

Shu maqsadda kombinatda 2023-yilda 50 nafardan ziyod xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi. O'tgan yili 300 nafar ishchi-xodimga oliy ta'lim olish, shuningdek, davolanish, uylarida ro'y bergan yong'in va boshqa baxtsiz hodisalar oqibatlarini bartaraf etish uchun 1 milliard 715 million 230 ming so'm miqdorida zayom ajratildi. Ushbu zayomlarning yarmidan ko'pi kombinatda xotin-qizlar tomonidan olingan.

(Davomi 2-betda).

BUGUNGI SONDA

TABRIK

Bahor bayramlar fasli 2

XUSHXABAR

"O'zmetkombinat" AJga global o'rtacha ko'rsatkich bahosi berildi 3

JARAYON

Ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi 7

JINOYAT VA JAZO

Metallurglarning haqqi buyurmadi 8

SO'RAGAN EDINGIZ

Ish joyi qisqartirishga tushganlarning qanday huquqlari bor? 9

SALOMATLIK

Energetik ichimliklar nimasi bilan xavfli? 10

SPORT

Mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rildi 11

TAFAKKUR

Mo'tabar va qalbi daryo ona 12

KIRIB KELAYOTGAN BAYRAMLAR MUBORAK BO'LSIN!

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida 2023-yilda 2403 nafar xotin-qiz tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ulardan 674 dan ortig'i ambulator, 330 nafari statsionar davolangan. Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida kombinatning 36 nafar ishchi-xodimi kombinat tavsiyasi bilan oliy o'quv yurtlarida tahsil olishmoqda. Bundan tashqari, o'tgan yil davomida kombinatning 565 nafar ayollari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qidilar.

Albatta, dunyoda davom etayotgan chuqur iqtisodiy inqirozga qaramay, biz olib borayotgan bunday ishlar o'z samarasini beradi va qanchalik qiyin bo'lmasin, buning uchun zarur vosita va imkoniyatlarni topamiz.

Hurmatli metallurglar!

Mart oyida bekobodlik metallurglar 5-mart kunini alohida mehr bilan kutib oladilar. 1944-yil shu sanada marten sexida birinchi o'zbek po'lati eritilgan. Bu kun kombinatimiz ishga

tushgan kun sifatida tarix sahifalariga bitilgan.

Bu yil jonajon korxonamiz ishga tushganligiga 80 yil to'ladi. Kombinat katta va sharaflari yo'lni bosib o'tdi. Bu davrda korxonamiz faoliyatida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi-yangi sexlar, quvvatlar ishga tushirildi. Biz korxonamiz qurilishida, birinchi po'lat eritishda qatnashganlar, kombinatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shganlar bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Jonajon yurtimizga go'zallik va nafosat, yasharish va yangilanish, mehr va oqibat bayrami – Navro'z ham kirib kelmoqda. Navro'z kecha bilan kunduz teng kelgan kunda nishonlanadigan millati, tili va dinidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun sevimli va aziz bo'lgan bayramdir.

Aynan Navro'zda barchamiz o'zimizda kuch-quvvat, g'ayrat va jo'shqinlikni his qilamiz. Qadimiy, ko'p asrlik an'ana va qadriyatlarga ega bo'lgan Navro'z orqali qanday buyuk

tarix va madaniyat izdoshlari ekanligimizni ham anglaymiz. Bundan qalbimiz o'zgacha g'urur va quvonchga to'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar Navro'z kabi har bir kunimizni yorug', betakror va albatta baxtli qilishdek ezgu maqsadlarga qaratilgan.

Hurmatli metallurglar, hamkasblar, hamkorlar va ishlab chiqarish faxriylari!

Yana bir bor barchani ajoyib bahor bayramlari bilan chin dildan tabriklayman! Ular har bir uyga, har bir oilaga tinchlik, baxt va farovonlik olib kelsin! Barcha ezgu orzu va istaklaringiz amalga oshsin!

Muqaddas Vatanimizga, butun xalqimizga farovonlik tilayman! Baxt va sog'liq hamrohingiz bo'lsin!

Rashid PIRMATOV,

“O'zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktor.

AYOLLAR HAMISHA E'TIBORDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, kasb-hunarga o'rgatish va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bu borada “O'zmetkombinat” AJda ham qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Metallurglar jamoasida ishchi-xodimlarning ikki ming nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Kombinat rahbarlari, mutaxassislari, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va ishlab chiqarish xodimlari orasida xotin-qizlar o'zlarining munosib o'rinlariga ega. Ular o'z vazifalarini sidqidildan bajarib kelishmoqda.

36 nafar ayol kombinatda mehnat qilish bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalarida sirtqi ta'lim shaklida, imtiyoz asosida ta'lim olmoqda. Faqatgina o'tgan yilda 105 nafar xotin-qizning maxsus kasb malakasi oshirildi va razryad ko'rsatkichlari ko'tarildi. Xotin-qizlar o'qitilgan kasblari bo'yicha ish joylariga o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

2023-yil xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Navli prokatlash bo'linmasi metall saralovchisi Marhabo Arziyeva “Mehnat shuhrati” ordeni, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sirlovchisi Mavjuda Matmurodova “Mo'tabar ayol” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu mukofotlar ayollarimizning mehnatda erishayotgan yutuqlarining e'tirofidir.

Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan kombinatda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarga har yili an'anaviy tarzda pul mukofotlari berilishi ham ayollarga ko'rsatilayotgan hurmat-e'tibor, g'amxo'rlik ramzidir.

Kombinatimizda xotin-qizlarning sog'lig'ini asrash yo'lida olib borilayotgan ishlar ham namunali yo'lga qo'yilgan. O'tgan yili Bekobod shahar “Metallurg” shifoxonasida



697 380 000 so'm moddiy yordam ajratildi. Oilaviy sharoitlarini tiklash, yaxshilash maqsadida 688 nafar kombinat ayollariga 316 850 747 so'm miqdorida moddiy yordam berildi.

Yurtimizda xotin-qizlarning har tomonlama baxtli-saodatli turmush kechirishini ta'minlash bugungi kunning bosh maqsadiga aylanmoqda. 2023-yil 21-dekabrda “Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident farmoni qabul qilingan. Bu farmon xotin-qizlar uchun barcha

onkologik kasalliklarning oldini olish va erta aniqlash maqsadida rejali tibbiy ko'rik tashkillashtirildi. Tibbiy-ko'rikda jami 2403 nafar ayolning sog'lig'i zamonaviy jihozlar orqali tekshiruvdan o'tkazildi. Zaruriyat bo'lgan hollarda ba'zilar davo va tekshiruvlardan keyin nazoratga olingan.

Bundan tashqari boshqa kasalliklarning ham oldini olish va erta aniqlash maqsadida o'tkazilgan tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar bo'yicha shifokorlar nazorati o'rnatildi.

Kombinatda xotin-qizlarga doimiy ravishda etibor berilib, ish joylarida yaxshi sharoitlar yaratish uchun sanoat xavfsizligi va mehnat

muhofazasi departamenti bilan birgalikda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida bir qator huquqiy, xayriya, madaniy va sport tadbirlari tashkil etilmoqda.

Birgina o'tgan yili kombinat xotin-qizlaridan 378 nafari Bo'stonliq tumanida joylashgan “Metallurg” pansionatiga dam oldi. 104 nafari kombinat sanatoriy-profilaktoriysida sog'liqlarini mustahkamladi. 52 nafariga esa Respublika sanatoriylariga yo'llanma berildi. Kombinat ayollarining davolanishi, sog'liklarini tiklash uchun tibbiy jarrohlik operatsiyalari va davolanishlariga

shart-sharoit va imkoniyatlarni yanada kengaytirishga, ayolning jamiyatdagi, oiladagi nufuzini oshirishga, opa-singillarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, ularning barcha orzu-maqsadlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Aziz opa-singillarimizni kelayotgan xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklaymiz. Mehribon opa-singillar! Yuzingizdan tabassum, ko'nglingizdan xotirjamlik va xonadoningizdan fayz-baraka arimasin! Baxt va sog'liq hamrohingiz bo'lsin!

Marhabo XALIKOVA,
“O'zmetkombinat” AJ Ayollar Kengashi raisi.

FAZILATLARGA BOY, RAHMAT OYI BO'LGAN RAMAZON

Alloh taolaga shukrlar bo'lsinki, o'n ikki oyning sultoni, rahmat va mag'firat oyi bo'lgan Ramazon oyi ham kirib kelmoqda. Alloh taolo bu oyni yaxshilik va taqvo oyi qildi. Payg'ambarimiz Muhammad alay-hissalom ham bu oyda barchani faol bo'lishga, bu oyning har bir kuni, soatini g'animat bilishga chaqirib, bu oyni ko'ngil so'rash, boshqalarga yordam qo'lini cho'zish va rahmshavqat oyi ekanini bayon qilganlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazon oyini intiqlik bilan kutar, uning yaqinlashganini kishilarga eslatib turar va sahobai kiromlarni u bilan tabriklab, munosib tayyorgarlik ko'rishga chorlar hamda, "Sizlarga Ramazon kirib keldi, muborak oy. Alloh sizlarga uning ro'zasini farz qildi", derdilar.

Ramazon tinchlik elchisi, go'zal axloq va yaxshi odob fursatidir. Birov bilan tortishish, janjallashish asli yaxshi ish emas. Imom Buxoriy va Nasoiy Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Qachon birortangizning ro'za tutgan kuni bo'lsa, shahvoniy so'z va amallarni qilmasin hamda baqir-chaqir qilmasin. Agar birortasi u bilan so'kishmoqchi yoki urishmoqchi bo'lsa: "Men ro'zador kishiman", desin"**, deganlar.

Ramazon ruhan poklanish, axloqan yuksalish o'yidir. Ramazonda shaytonlar kishanlanib, kishilarga o'zlarini tarbiyalashga imkon beriladi. Binobarin, bu oyda qilingan gunohning jazosi qattiqroq bo'ladi. Shu bois, hadislarda Ramazonda barcha axloqsizliklardan, gunohlardan poklanishga qattiq targ'ib qilingan. Hatto Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Kim yolg'on gapirishni va unga ko'ra amal qilishni qo'ymasa, uning taom va ichimligini tark etishga ehtiyoji yo'q"**, deganlar.

Ramazon saxovat oyi bo'lib, bu muborak oyda qilingan sadaqa va xayru ehsonlarning savobi yanada ko'p va ajri ulug' bo'ladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazonda har doimgidan ham ko'proq saxovat qilar edilar, hatto, Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Yo'q, lekin ishchi ishini ado etganidan so'ng ajri-haqi to'la qilib beriladi"**, dedilar. (Imom Ahmad rivoyat qilgan).

Ramazon rahmat o'yidir. Ramazonda Alloh taoloning rahmati jo'sh uradi. Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda: **"Ramazon bo'lganda rahmat eshiklar ochiladi"**, deyilgan. Ramazonning avvalgi o'n kunligi nafaqat oyning, balki yilning "rahmat kunlari" hisoblanadi.

Ramazon mag'firat o'yidir. Uning o'rtadagi o'n kuni nafaqat oyning, balki yilning "mag'firat kunlari" hisoblanadi. Abu Fazl Ramazon fazilati haqida Salmon roziyallohu anhudan qilgan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"U avvali rahmat, o'rtasi mag'firat va oxiri do'zaxdan ozod bo'lish fursati bo'lgan o'yidir"**, deganlar.

Ramazon do'zaxdan ozod bo'lish o'yidir. Uning o'rtadagi o'n kuni nafaqat oyning, balki yilning "do'zaxdan ozod bo'lish" kunlari hisoblanadi. Shu bilan birga, Ramazonda har kecha son-san-oqsiz kishilar do'zaxdan ozod qilinadi. Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Ramazonda har kecha Allohning do'zaxdan ozod qilinadiganlari bo'ladi"**, deganlar. Ramazonning oxirgi kechasi mag'firat kechasidir. Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: **"U (Ramazon)ning oxirgi kechasi-da ro'zadorlarning gunohlari kechiriladi"**, dedilar. Ular "Ey Allohning Rasuli, u Qadr kechasimi?", deb so'rashdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **"Yo'q, lekin ishchi ishini ado etganidan so'ng ajri-haqi to'la qilib beriladi"**, dedilar. (Imom Ahmad rivoyat qilgan).

Ramazon taqvo o'yidir. Ramazon mo'min kishiga taqvo malakasini baxsh etuvchi o'yidir. Alloh

taolo bandalariga taqvoni ro'yobga chiqarishlari uchun muborak ramazon oyi ro'zasini joriy qildi. Alloh taolo Baqara surasida Ramazon ro'zasini farz qilgan oyatida: **"Ey iymon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro'za farz qilindi. Shoyadki taqvodor bo'lsalaringiz"**, deb, ro'zaning asosiy fazilatini, xususiyatini bayon qilgan.

Ramazon oyi odamlar uchun hidoyat va to'g'ri yo'l hamda haq bilan botilni ajratuvchi ochiq oyatlardan iborat Qur'on nozil qilingan o'yidir. Alloh taolo Baqara surasining 185-oyatida shunday marhamat qiladi: **"Ramazon oyiki, unda odamlarga hidoyat hamda hidoyatu furqondan iborat ochiq bayonotlar bo'lib, Qur'on tushirilgandir"**.

Ramazon oyi har doim oylarning sultoni, sayyidi, eng yaxshisi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qolaveradi. Ramazon oyi ro'za, tarovih va tilovat oyi bo'lib, uning ro'zasini tutish farz, tarovih namozini o'qish sunnat, Qur'oni karimni xatm qilish esa fazilatidir. Ramazon shunday qadrlil va g'animat o'yidir, unda tutilgan ro'zaning savobini bevosita Alloh taoloning O'zi beradi. Shunday ekan, bu muborak oy har bir mo'min-musulmon banda uchun ulkan savoblar topib qolish, yaxshiliklar qilib qolish uchun juda qulay fursat ekan. Bu fursatdan unumli foydalanib qolishimiz darkor.

Ro'zaning inson jismiga, ruhiga va hayotiga foydalari juda ko'p. Xususan, ro'za tutish orqali inson jismida yig'ilib qolgan zararli moddalar, yog'lar erib, yo'q bo'lib ketadi. Organizm yangilanib, chiniqib, tozalanib oladi. Insonning fikri o'tkirlashadi. Ruhi tetik, qalbi musaffo bo'ladi. Ro'zaning eng buyuk g'oyasi va foydasi insonning ikki dunyoda baxt-saodatga erishishi, do'zaxdan najot topib, jannatga kirishiga sabab bo'luvchi eng katta omillardan biri, yuqorida aytib o'tganimizdek, taqvoning hosil bo'lishidir. Bu haqiqatni Alloh taoloning O'zi ochiq aytgan.

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, ro'zani ixlos bilan, Alloh taoloning rahmatiga, mag'firatiga va buyuk mukofotlariga erishish uchun shavqu zavq bilan tutaylik. Fazilatlarga boy bo'lgan Ramazon oyi barchamizga muborak bo'lsin. Kirib kelayotgan Ramazon oyini O'zi rozi bo'lgandek o'tkazishimizga muvaffaq qilsin. Amin!

Ergashboy HAMIDOV,
Bekobod shahar bosh imom-xatibi.



XALQARO EKOLOGIYA TASHKILOTI TOMONIDAN

"O'ZMETKOMBINAT" AJGA "C" BAHOSI BERILDI

O'zbekistonda qora metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi ishlab chiqaruvchi "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasida birinchi marta ESG reytinglarining eng nufuzli xalqaro provayderlaridan biri bo'lgan CDP (Carbon Disclosure Project)dan baho oldi.

"Ekologik shaffoflikka erishayotgan, chiqindilarni kamaytirib, tabiatga do'stona munosabatda bo'layotgan korxonalar CDP xalqaro ekologiya tashkiloti tomonidan baholanib boriladi. Butun dunyo bo'ylab ekstremal ob-havo sharoitidan tortib, tabiatning misli ko'rilmagan yo'qotishlarigacha doimiy ravishda ortib borayotgan ekologik muammolar davrida bu reytinglarga ehtiyoj har qachongidan ham katta. Sababi ekologiyaga bo'lgan e'tiborni oshirish yo'lida olib borilayotgan barcha ishlar har birimizga faqatgina foyda



keltiradi. Ular atrof-muhit musaffoligi, havomiz tozaligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

CDP Climate Change 2023 (CDP tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha axborotni baholash) doirasida o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, "O'zmetkombinat" AJga "C" bahosi berildi. Bu natija global o'rtacha ko'rsatkichga to'g'ri keladi va CDP tomonidan kompaniyaning iqlim o'zgarishi sohasidagi keng ko'lamlil masalalari bo'yicha xabardorligi va ko'rilyotgan chora-tadbirlarini tan olinishini bildiradi.



Bu xalqaro ekologiya tashkiloti ro'yxatidagi korxonalar yanada yuqori baho olishga, boshqalari esa bu ro'yxatga kirishga intilishlari tashkilot nufuzidan, uning olib borayotgan faoliyati barcha uchun foydaliligidan darak beradi.

O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI - 80 YOSHDA

O'ZBEK PO'LATI - YUKSALISH QUDRATI

JORIY YIL "O'ZMETKOMBINAT" AJ ISHGA TUSHGANIGA 80 YIL TO'LADI. IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA - 1944-YIL 5-MART KUNI MARTEN SEXIDA BIRINCHI O'ZBEK PO'LATI ERITILDI. SHU KUN TARIXDA KOMBINATIMIZNING ISHGA TUSHGAN KUNI SIFATIDA QOLDI.


QURILISH 1942-YILDA BOSHLANDI

Markaziy Osiyodagi to'ng'ich qora metallurgiya zavodi Bekobodda ikkinchi jahon urushi davrida qurildi. Ko'plab shahar va qishloqlar vayronaga, imoratlar kultepaga aylangan bir paytda zavod qurilishi qizg'in tus oldi. Temir-tersak parchalarini qayta ishlab, mahalliy sanoatning navli prokatga bo'lgan ehtiyojini qondirish va tom tunikasi ishlab chiqarish uchun metallurgiya korxonasini qurish haqidagi qaror ikkinchi jahon urushi arafasida, 1941-yil 18-iyunda qabul qilingandi. Lekin, qurilishning o'z vaqtida boshlanishiga kutilmagan boshlangan urush xalaqit berdi.

1942-yil iyun oyida, nemis-fashist bosqinchilarining Stalingrad ostonasida tor-mor keltirilishi arafasida metallurgiya zavodi qurilishiga qaror qilindi. Hukumat komissiyasi Sirdaryo bo'yida, "Xilkovo" stansiyasi (hozirgi Bekobod temir yo'l stansiyasi) yaqinida zavod qurilishi uchun maydon tanladi. Bu joyda suv seroblighi, mahalliy qurilish ashyolarining yetarli miqdorda mavjudligi, temir va avtomobil yo'l shoxobchalarining mavjudligi, keyinchalik Farhod elektr stansiyasi quril-

5-mart kuni marten sexida birinchi o'zbek po'lati quymasi tayyorlashda ishtirok etgan po'lat quyuvchi, keyinchalik Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining faxriy professori bo'lgan Abdurahim Ortiqov ham bor edi.

- Alapaevsk metallurgiya zavodida



(Yekaterinburg viloyati) men po'lat quyuvchi Nikolay Aleksandrovich Kalininga biriktirildim. G'amxo'r va mehribon bu kishi talabchan, kovsh ishining ustasi edi. Biz yigitlar 40

Menga 1943-yil 17-avgustda kovshchi yordamchisi bo'lganligim haqida guvohnoma berishgan, - degan edi Abdurahmon ota.

1943-yil sentabr oyi boshlarida metallurg kasblarini egallagan yoshlar uzoq Uraldan O'zbekistonga qaytishdi. Ularning Bekobodga qaytishlari uchun ko'p vaqt ketdi. Sababi poezdda yo'l yurib, ko'pincha zahiradagi yo'lda to'xtab turishlariga to'g'ri kelardi. Chunki, O'zbekistonga yo'l olgan poezd urushga ketayotgan harbiy vagonlarga yo'l bo'shatishga majbur bo'lardi. Hunar va kasb egallagan yoshlar Bekobodga kelishlari bilan marten sexi qurilishiga kirishib ketdilar.

PECH GURILLAB KETDI...

O'zbekiston metallurgiya zavodining qurilishiga katta e'tibor qaratildi. Ishlar bir zum to'xtamadi. Qisqa muddatlar da marten sexi ishga tushirilshga tayyor bo'ldi. Shundan so'ng birinchi po'lat quymasi olishga puxta tayyorgarlik ko'rildi. - Asosan yoshlardan iborat brigadamiz a'zolari smena boshlig'i I.I.Terexov (eng yosh metallurg-muhandis), po'lat erituvchi A.P.Shtirov, po'lat erituvchining birinchi yordamchisi Hofiz



ishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. 1942-yil kuzida bu joyga quruvchilarning dastlabki guruhi hamda Bekobod, Toshkent, Moskva shaharlaridan hukumat komissiyasi a'zolari yetib kelishdi. Ular orasida o'sha davrdagi O'zbekiston rahbari Usmon Yusupov ham bor edi. U zavod poydevoriga birinchi qoziqni qoqqanidan so'ng qurilish ishlari boshlanib ketdi. O'z davrining yirik bu qurilishida haqiqatda butun mamlakat ishtirok etdi. Kechagina O'rta Osiyo Respublikalari jamoa xo'jaliklarida ishlab yurgan dehqonlar Ukraina va Belorussiya, Ural hamda Sibirdan kelgan quruvchilar bilan yelkama-yelka turib fidokorona mehnat qilishdi. Kuznesk metallurgiya zavodi marten pechlari darchasini yopadigan moslama va karkas tayyorlab bergan bo'lsa, Magnitogorsk va Gurevsklik hamkasblar ham qurilish uchun zarur materiallar yetkazib berishdi. Donbass, Magnitogorsk, Kuznesk, Gurev, Dobryansk metallurgiya korxonalari Bekobodga po'lat eritish va prokat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha malakali ustalarni jo'natdilar.

YOSHLAR METALLURG KASBIGA TAYYORLANDI

800 nafar yoshlar metallurgiya sohasidagi turli kasblarni puxta egallashlari uchun Ural va Sibir zavodlariga yuborildi. Ular orasida, 1944-yil

40 nafar edik. Zavodda barcha bizga xuddi o'z farzandlaridek qarashar, bizni o'qitib, tarbiyalab, g'amxo'rlik qilishardi. Barchamiz safardan



po'lat erituvchi, kovshchi yordamchilari, kran boshqaruvchisi, pechga xomashyo tashlovchi mashina, po'lat quyish telejkasi mashinistlari va boshqa mutaxassisliklarni egallab Bekobodda sog'omon qaytib keldik.

G'aniyev, po'lat erituvchining ikkinchi yordamchisi Yedige Kulmirzin (sex, keyinchalik zavod yoshlar tashkilotining kotibi), men, kanava ishchisi Olim Mirzayev, kran boshqaruvchisi Margarita Toporkova, telejka mashi nisti Tojiboy Mirzayev va boshqalar kechki smenada ishlagan edik, - deya xotirlagan edi Abdurahim Ortiqov. Smenaga kelishimiz bilan brigadamizning a'zolarini oshxonaga taklif qilishdi.

Yonimizga savat ko'targan qiz kelib har birimizga bir nechta go'shtli somsa tarqatdi. "Bunday to'kinchilikni ko'pdan buyon ko'rmagan edik", - dedi Hofiz G'aniyev. Lekin, bu hali hammasi emas ekan. Har birimizga 100 grammdan aroq ham quyib berishdi. "Xuddi frontdagidek" - deya yigitlar hazil-lashdilar. Kutilmagan bu "mehmondorchilik"dan so'ng po'lat quymasi olishda ishlaydiganlar pech tomon yo'l oldik. Temir parchalari, ohak, koks, cho'yan pech yoniga oldindan keltirib qo'yilgan edi. Pech ustasi Mixail Romanovich Shelevanov darrov pechning xomashyo tashlanadigan darchasining chekkadagi ikkita qopqog'ini ochdi.

(Davomi 5-betda).

O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI - 80 YOSHDA

O'ZBEK PO'LATI - YUKSALISH QUDRATI

**(Davomi. Boshlanishi 4-betda).**

Biz shu zahotiy oq pechga xomashyolarni tashlay boshladik. 20 kishi chap, yana shunchamiz o'ng tomondan turib, bir soatda 30 tonna shixtani pechga irg'itdik. Pechni xomashyolar bilan yetarlicha to'lg'azganimizdan so'ng Aleksey Shtirov olovni kuchaytirdi, pech gurrillab ketdi...

PO'LAT TAYYORI!

dov oxirgi topshiriqlarni bajarmoqdalar.
- Po'lat tayyor!

Kovsh ortilgan telejka tezda pech yoniga keltirildi. Po'lat quyish ustasi urallik po'lat quyuvchi N.K.Vasilikin tayyor holdagi eritmani quyishni boshladi. Yorqin alanga domidagi pechdan qaynoq metall yarqirab oqib chiqdi. Odamlar bir-birlarini quchishgan, yuzlaridan o'pishib, birinchi quyma muvaffaqiyatli olinganligi bilan tabriklardilar. Ko'plarning ko'zlaridan quvonch yoshlari chiqib ketdi. Bunday voqealar hech qachon unutilmaydi.

Front ehtiyojlari uchun jo'natilgan o'n minglab tonna Bekobod po'lati dushman ustidan erishilgan Buyuk g'alabaga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Davlat mudofaa Qo'mitasi raisining tabrigida "O'zbekiston metallurgiya zavodining qurilishi muvaffaqiyatli olib borilganligi urushning eng og'ir sharoitida o'zbek xalqi ko'rsatgan qahramonona mehnatning yorqin isbotidir", deya yuksak baho berilgandi.

A.G.Shtirov, M.N.Kalinin, Y. G.Mayshyev, N.K.Vasiliskin, quyuvchilar ustasi Xojimurod Haydarov, mexanik Dadikin, elektrik aka-uka Yo'ldoshevlar, laboratoriya boshlig'i, so'ng zavod muzeyi direktori M.I.Averkova va ko'plab boshqalar zavodimiz taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo'shganlar.

Bugun birinchi po'lat eritmasi tayyorlashda qatnashganlardan hech kim safimizda qolmadi. Lekin ularning xotiralari metallurglarimiz, bekobodliklar qalbida abadiy qolgan.

SANOATIMIZ TARAQQIYOTIDA MUHIM ROL O'YNAMEQDA

Bekobodlik metallurglar ota-bobolari boshlagan ishni muvaffaqiyatli davom ettirishmoqda. Kombinat ishga tushgandan buyon o'tgan 80 yilda "O'zmetkombinat" AJ mamlakatimizning eng yirik sanoat korxonalaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz erishgan yutuqlarda "O'zbekiston metallurgiya kombinati"ning alohida o'rnini bor va u sanoatimiz

**BIRINCHI O'ZBEK PO'LAT ERITUVCHILARI**

Bu vaqtda zavodda mehmonlarni kutib olishga tayyorgarlik ham boshlandi. Ertalab Toshkentdan maxsus poezdda birinchi o'zbek po'lati olinishini ko'rish uchun ko'p sonli kishilar kelgandi. Ular orasida Toshkentdagi zavodlarning ishchilari, muhandis-texnik xodimlari, yozuvchi va olimlar, artistlar, harbiylar, Respublikamiz rahbarlari bor edi.

Zavod hovlisida ko'p ming sonli yig'ilish o'tkazildi. So'z qurilish boshlig'i Shamet Aytmetovga berildi. U quruvchilarning shonli mehnat yutuqlari, martenning birinchi pechi ishga shay-

Bekobodlik metallurglar keyinchalik yana ko'plab yutuqlarga erishdilar. Bu g'alabalarda ham Abdurahmon Ortiqov va uning tengdoshlarining hissalariga katta bo'lgan. Ulardan ish joyida fojeali halok bo'lgan Erali Joxayev, bir oyog'idan ajralgan Azima Ahmedova, mehnat Qahramoni Hofiz G'aniyev, keyinchalik Prezident Kengashida ishlagan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi Ibrohim Husnitdinov, Chimkent viloyati prokuraturasi maslahatchisi Yedige Kulmirzin,

taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda. Ak-siyadorlik jamiyati jamoasi tayyorlanayotgan mahsulot hajmini yil sayin ko'paytirib, ishlab chiqarish quvvatini oshirib bormoqda.

Ko'p ming kishilik jamoa eng murakkab vazifalarni uddalashga qodir bo'lib, el-yurtimiz hurmatini qozonib kelmoqda.

Ko'p yillardan buyon o'z taqdirini kombinatimiz bilan bog'lagan odamlar, mehnat sulolalari faoliyat ko'rsatib, o'zlarining yuksak



ligi haqida gapirdi. Zavod imoratlari "Ura" deb baqirishlardan, qarsaklardan titrab ketganday bo'ldi.

Kechki soat 18.55. Marten sexi boshlig'i Mixail Grigorevich Kostyanoy ko'ziga ko'k oynani tutib qaynayotgan pechning ichiga qaradi. Urallik po'lat erituvchilar Y.G.Lukyanchenko, Y.G.Mayshyev, yordamchilari Erali Jaxayev va Azim Ahme-

mahalla qo'mitasi raisi Obidjon Xojimatov, Ahmed Ataulin, Nikolay Alyakin, Olim Mirzaev, Ravil Abdiev, Tojiboy Mirzayev, Axmed Gaydulin, Mahmud Karimov hamda mehnat Qahramoni Asad Ergashev, shuningdek, yosh o'zbek metallurglarining birinchi ustozlari - sex boshlig'i M.G.Kostyanoy, smena boshlig'i I.I.Terexov, sex boshlig'i o'rinbosari P.V.Gordeev, po'lat erituvchilar ustalari Y.G.Lukyanchenko, I.V. Grudnin, M.R.Shelovanov,

ma'naviy qadriyat va insoniy fazilatlarga asoslangan hayot tajribasi va kasb mahoratini yoshlarga singdirmoqda. Bekobodlik metallurglarning katta bunyodkorlik kuchi mana shunda va bu esa yangi mehnat zafarlariga erishishda mustahkam paydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ismat DIYOROV,**"Metallurg minbari" gazetasi muxbiri.**

DAVLAT TILIGA E'TIBOR HAR SOHADA MUHIM

HAR BIR XALQNING TILI SHU DAVLATNING TIMSOLI, MULKI, RUHI, MADANIY VA MA'NAVIY BOYLIGI, QOLAVERSA, SHU MILLATNING MADANIYATI, URF-ODATI, TURMUSH TARZINI IFODALOVCHI ENG MUHIM VOSITADIR. SHU SABABDAN HAM MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK TILINING SOFLIGINI SAQLASH, UNI ASRAB-AVAYLASHGA, NUFUZINI OSHIRISH BO'YICHA KO'P CHORA-TADBIRLAR AMALGA OSHIRILDI.

TIL SIYOSATI TAKOMILLASHMOQDA

"O'zmetkombinat" AJda ham davlat tilida ish yuritish borasida qator amaliy faoliyat olib borilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ushbu hujjatga ko'ra ishlab chiqilgan "2020—2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asos bo'lmoqda.

"O'zmetkombinat" AJ tarkibiy bo'linmalarida ish yurituvdagi barcha hujjatlar davlat tilida yuritilishi va tasdiqlanishi, shuningdek, korxonaning binolari va hududlaridagi barcha yozuvlar davlat tilida bo'lishini nazorat qilish bo'yicha maqsadli o'rganishlar jadvali tasdiqlangan edi. Tarkibiy bo'linmalarning ish yurituvdagi hujjatlari 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 80 foizga, kombinat hududlaridagi tashqi yozuvlar esa 100 foizga davlat tiliga o'girildi.

Kombinatdagi barcha kompyuterlarga "Davlat tilida ish yuritish" kitobi hamda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini xodimlar mustaqil ravishda o'rganishlari uchun "O'zbek adabiy tili me'yorlari va davlat tilida ish yuritish kursi tinglovchilari uchun" ish daftarining PDF formati joylashtirilgan. Kombinatni boshqarish "1C" axborot tizimida kirill yozuvdagi matnlarni lotin yozuvga o'tkazish uchun elektron o'girgichlar o'rnatilgan. Hozirgi kunda, kombinat bo'yicha ishlab chiqarish va kadrlarga oid barcha buyruqlar tegishli qonun hujjatlariga asosan zaruratga qarab ikki tilda - lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida va rus tilida ishlab chiqilmoqda.

Kombinatning rasmiy veb-sayti, Telegram messenjeridagi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritilyapti. "Metallurg minbari" gazetasi Respublikada birinchilar qatorida to'liq lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida nashr qilinmoqda.

AN'ANAVIY TADBIRLAR O'TKAZILMOQDA

Kombinatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha muntazam ravishda tadbirlar o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan "Olamni mahliyo aylagan diyor", "O'zbekiston Respublikasi Davlat

bayrog'i to'g'risida" qonun qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan korxonada "Muqaddasdir - Vatan bayrog'i" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. 21-oktabr - O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun bayrami munosabati bilan kombinatda "O'zbek tili - qalbim tarjimoni" mavzusida eng yaxshi ijtimoiy materiallar tanlovi o'tkazildi. Yuqorida qayd etilgan tadbirlarda yoshlar o'rtasida viktorinalar uyushtirildi. Viktorina g'oliblari kombinat tomonidan hamda O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasidan taqdim etilgan davlat tiliga oid o'quv qo'llanmalar bilan taqdirlandilar.

"YO'L XARITASI" QABUL QILINDI

"O'zmetkombinat" AJ tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2024-yil uchun "Yo'l xaritasi" qabul qilingan. 56 banddan iborat mana shu yo'l xaritasiga asosan kombinatda O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosini to'liq ta'minlash, rasmiy ish yuritish hujjatlarini davlat tilida bo'lishiga erishish ham belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar, shonli sanalar, kasb bayramlari munosabati bilan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Eng yaxshi innovatsion g'oyalar, ratsionalizatorlik takliflari, eng yaxshi turli kasb egalari, kitobxonlik kabi tanlovlar hamda turli uchrashuvlar, targ'ibot ma'ruzalari, davra suhbatlari, sport musobaqalari kabi qator tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

DAXLDORLIK TUYG'USI

Ta'kidlash joizki, har bir ishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun hamjihatlik katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, o'zbek tili barcha bekobodlik metallurglar uchun aziz va qadrlil tilga aylanishi, uning jozibadorligini oshirish uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz, tilimiz uchun jon kuydirishimiz zarur.

Bunda daxldorlik tuyg'usi juda muhim o'rin tutadi. Ya'ni tilimizga bo'lgan hurmatimiz uyda, ko'chada, jamoat joylarida, o'quv-ta'lim muassasalarida yaqqol sezilishi, so'zlashuv madaniyatimizda o'z ifodasini topishi shart.

Nigora ATAXANOVA,
ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi.



NAVRO'ZI OLAM – YASHARISH AYYOMI

Kecha bilan kunduz teng kelgan kunda Navro'z kirib keladi. Besh ming yillik tarixga ega bu bayram inson va tabiat uyg'unligi ramzidir.

Xalqimiz azal-azaldan Navro'zni "Yilboshi" deb bejiz atamagan. Sababi aynan shu bayram kirishi bilan dala-dashtlar yangi qiyofaga kiradi, go'yoki ko'klamning mayin shabadasi har birimizning ko'nglimizga huzur bag'ishlashi bilan birga butun borliqni uyg'otib, g'ayrat-shijoat baxsh etayotgandek.

Bu bayram oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha tasavvurlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan bayram. Bayram qadim-qadim zamonlardan buyon elimiz ardoqlab kelayotgan, elimizni, yurtimizni ulug'lab kelayotgan bayram.

Asrlar tarixiga ega bu bayram tomoshalarida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, milliy an'analarimiz qayta tiklanib, yangicha tus oladi. Shu tariqa milliy meroslarimiz avlodlar qalbiga singib boradi. Navro'z bayramining qadim tarixi, milliy qadriyatlarimiz bilan bog'liq jihatlari, madaniy-ma'rifiy hayotimizda tutgan o'rnini katta.

Navro'z bayrami mamlakatimizda umumxalq bayramlaridan biri sifatida keng nishonlanib kelinadi. Har yili mamlakatimizdagi barcha shahar va qishloqlarda ushbu bayram munosabati bilan turli sayillar, tomoshalar, bayram tadbirlari o'tkazilmoqda. Bayram kuni mehribonlik uylari urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar, nogironlar, mehrga muhtoj kishilar holidan xabar olinib, ularni bayram bilan qutlab, turli sovg'alar, xayr-ehsonlar taqdim etish xalqimizning go'zal an'analaridandir.

Navro'z zamirida olam ahlini o'zaro totuvlik, do'stlik va hamjihatlikka da'vat etuvchi umuminsoniy qadriyatlar mujassam. Insonlarni ezgulikka da'vat etgan. Kelayotgan Navro'z bayrami barchaga muborak bo'lsin!

AKSIYADORLAR KENGASHIB OLIHDI

Yaqinda Metallurglar madaniyat Saroyida "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. "O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv kengashi a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ijrochi direktori Shuhrat Vafaev ZOOM platformasi orqali onlayn ravishda yig'ilishga raislik qildi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida "O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv kengashi tarkibiga o'zgartirishlar kiritish, "O'zmetkombinat" AJ Ustavini va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomini hamda "Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish tartibini belgilash to'g'risida"gi nizomini yangi tahrirda tasdiqlash masalalari ko'rib chiqildi.

Ushbu masalalar yuzasidan korporativ kotib

Yulduzxon Usmonova so'zga chiqdi. U ZOOM platformasi orqali onlayn ravishda qilgan ma'ruzasida aksiyadorlarga bu masalalar yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berdi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rilgan barcha masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Sheroz SHUKURALIYEV.

TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH HAMKORLIGI

Mamlakatimizda turli sohalarda malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarining ham oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi tobora mustahkamlanib bormoqda.

Yaqinda Moskva po'lat va qotishmalar instituti Olmaliq filialining o'qituvchi hamda talabalar "O'zmetkombinat" AJga ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish maqsadida kelishdi. Mehmonlar sayohatni dastlab kombinat tarixi muzeyi bilan tanishishdan boshlashdi. Shundan so'ng ular Ferroqotishmalar ishlab chiqarish va Navli prokatlash bo'linmalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini borib ko'rishdi.

Bunday malakaviy amaliyot bo'lg'usi mutaxassislarining kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab



chiqarish bilan yaqindan tanishish orqali talabalar bilimlarini amaliyotda qo'llashni, hayotga tatbiq etishni o'rganib olmoqdalar. Mana shunday uslubda ta'lim va tahsil olayotgan talabalaridan ishlab chiqarish korxonalariga javob beradigan malakali muttaxassislar yetishib chiqadi.

Tashrif davomida talabalar katta qiziqish bilan kombinat tarixi, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdilar. O'zaro hamkorlik uchun "O'zmetkombinat" AJ tomonidan Moskva po'lat va qotishmalar instituti Olmaliq filialining rahbariyatiga minnatdorchilik bildirildi.



Kombinat taraqqiyotida oddiy mehnat kishilarining ham o'z kasblarining ustasi bo'lishlari talab etiladi. Ishchilarning vazifalarini namunali bajarishlarida kombinatda Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi tomonidan tashkil etilayotgan turli kasb egalari o'qitilishi muhim omillardan biri hisoblanadi.

ZAMONAVIY DASTUR ASOSIDA BILIMLARINI OSHIRDILAR

Boshqarma tarkibiy bo'linmalar ehtiyojidan kelib chiqib, aniq yo'nalishlar bo'yicha ishchi-xodimlar o'qitilishini tashkil etib bormoqda.

Ana shunday qayta tayyorlash kurslaridan biri joriy yilning 12-fevralidan 23-fevraligacha ishlab chiqarishdan ajralgan holda "Yuk iluvchi" kasbi bo'yicha o'tkazildi.

Shu kunlari "Ikkilamchiqorametal" filiallari va Tog'-kon geologiya ishlari bo'limi Navoiy viloyati Uchquduq tumani "Kokpatas" koni xodimlarini "Yuk iluvchi" kasbi bo'yicha o'qitish uchun online tarzda (nazariy mashg'ulotlar) "ZOOM" platformasida qayta tayyorlash kursi tashkil etildi.

Ijroiya apparati Sanoat xavfsizligi bo'limi va mehnat muhofazasi departamentining yuk ko'tarish mexanizmlarini nazorat qilish bo'yicha muhandisi Nodir Aripov maxsus texnologiya bo'yicha, Mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i Gulmira Toshmatova texnika va yong'in xavfsizligi bo'yicha ishchilar bilan mashg'ulotlar olib borishdi.

"Ikkilamchiqorametal" filiallari va "Kokpatas" konidan biriktirilgan murabbiylar amaliy mashg'ulotlarni bu korxonalarining maxsus ajratilgan joylarida o'tkazdilar.

Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarida ishchilar zamonaviy dastur asosida bilimlarini oshirdilar. Bitiruvchilar bu o'quv kurslarida yanada ko'proq bilim va malakaga ega bo'lishdi.

BUYUK AJDODLAR YODI DOIM BARHAYOT

"Metallurglar madaniyat saroyida mutafakkir, shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy va shoir, tarixchi, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomiga bag'ishlanib tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda "O'zmetkombinat" AJ ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha maslahatchi Nigora Ataxanova, Bekobod shahar hokimi maslahatchisi Ulug'bek Abdunazarov, Elektrda po'lat eritish bo'linmasi kasaba uyushmasi raisi Ma'ruf Allamurodovlar o'zbek adabiyotining ikki zabardast vakillarining hayoti va ijodi haqida to'xtalib o'tishdi.

Kombinat ishchi-xodimlari o'rtasida Alisher



Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomiga bag'ishlab "Buyuk ajdodlar yodi doim barhayot" mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazilgan edi. Tadbir davomida g'olib va sovrindorlarga diplom va pul mukofotlari topshirildi.

Navoiy va Bobur hayoti va ijodi mavzusida viktorina savollariga to'g'ri javob bergan ishtirokchilar ham sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Ismoil UMMATOV.

MUHIM O'RINLARI BOR

Elektrotexnika laboratoriyasi (ETL) jamoasi kombinatning tarkibiy bo'linmalariga elektr xizmati ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Jamoa kombinatning elektr jihozlari, rele himoyasi va avtomatlashtirish qurilmalari, hisobga olish va o'lchash tizimlari, avtomatlashtirish va signalizatsiya tizimlari, sinov qurilmalari va apparatlarining muammosiz ishonchli ishlashini ta'minlaydi.

Shuningdek, elektr jihozlarini, kabellarni, asboblarni, rele himoyasi va avtomatlashtirish vositalarini profilaktik sinovdan o'tkazish, elektr qurilmalarini ishlatish paytida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish sexlarining ishlamay qolishini qisqartirish maqsadida tezkor ishga tushirish, yoritish me'yorlarini o'lchash, yerga ulash xalqalarini tekshirish, mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, rejali profilak-



tika ishlari joriy etish, yangi texnika jihozlarini tadbir etish kabi vazifalarni ham aynan shu jamoa vakillari bajarishadi. Elektrotexnika laboratoriyasida rele himoyasi va avtomatikasi, yuqori kuchlanishdagi sinovlar va o'lchovlar sohasida ishlayotgan malakali mutaxassislar yetarli. Jamoa kombinatda belgilangan barcha ishlarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarmoqda. Bundan



tashqari Bekobod shahar elektr tarmoqlari xizmatiga ham kabel liniyalariga shikast yetganda uni aniqlash bo'yicha yordam ko'rsatib kelyapti. Ushbu laboratoriyada ustoz-shogird an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tajribali elektromontyorlar A. Umonqulov, M. Mo'minov, R. Bobomurodov, O. Rajabov, D. Xoliqberdiyev, T. Mamanazarov, N. Kolesnikovlar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini yoshlarga o'rgatib kelishmoqda.

KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGA KURASHAMIZ!

Har qanday Jamiyat siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka intiladi. Shu maqsadda turli chora-tadbirlar qo'llaydi, islohotlar o'tkazadi. Millat va mamlakat faravonligiga, islohotlar muvaffaqiyatiga erishishning asosiy shartlaridan biri – qadimiy illat korrupsiyaga qarshi kurashishdir.

Dunyo davlatlari hukumat organlari mas'uliyatini kuchaytirish, xususiy sektorda halollikni rivojlantirish shartlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash bo'yicha turli xil strategiyalar, dasturlar va chora-tadbirlar qabul qilmoqda. Afsuski, hanuzgacha korrupsiyaga qarshi kurashish shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayotimizning asosiy muammolaridan biri bo'lib saqlanib qolmoqda.

Hozir dunyoda korrupsiyaning zarari qariyb 3 trillion AQSH dollarini tashkil etmoqda, biroq muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilayotgan haqiqiy zararining aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi. Eng yomoni

– Jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi".

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijalarini baholashga qaratilgan reyting va indekslar mavjud. Bunga davlat siyosati va ko'rilayotgan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar korrupsiya muammosini qay darajada hal qilinayotganini aniqlashga yordam beruvchi Korrupsiyani qabul qilish indeksini misol qilib keltirish mumkin.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi 1995-yildan buyon 13 ta ekspert manbasi, jumladan, Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi, konsalting va reyting agentliklari, tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladigan, davlat sektoridagi korrupsiyani qabul qilishni aniqlovchi reytingdir. Unda 180 ta davlat 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha tavsiflanadi, 0 – eng yuqori va 100 – eng past korrupsiya darajasini aks ettiradi. Indeks ko'plab mamlakatlarda qiyosiy baholash sohasidagi eng mashhur ko'rsat

kichlardan biri hisoblanadi.

Joriy yilning 30-yanvar kuni "Transparency International" xalqaro tashkiloti 2023-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. E'lon qilingan natijalarga ko'ra, O'zbekiston indeksdagi o'rnini jadallik bilan o'nglab, 33 ball bilan 180 mamlakat orasida 121-o'rinni egalladi. E'tiborlisi shundaki, xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, Mamlakatimiz keying yillarda korrupsiyani qabul qilish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar qayd etayotgan yagona davlat va uning ko'lami bo'yicha mintaqa yetakchisiga aylandi. Bu albatta 2017-yildan buyon mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida yuritilayotgan davlat siyosati tufayli amalga oshdi.

Davlat va Jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish bo'yicha vazifalarni samarali bajarish korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli chora-tadbirlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqimiz uchun farovon va

munosib turmush tarzi, sharoitlarini yaratishga qaratilgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining asosiy me'zonlaridan biriga aylanmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Korrupsiya illati hatto eng qudratli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik Jamiyat va davlatning muqaddas burchidir".

Aziz kombinat ishchi-xodimlari!

Sizlardan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlaringizni so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

Akmal SHARIPOV,

"O'zmetkombinat" AJ
boshqaruvi raisining o'rinbosari
– umumiy masalalar bo'yicha
direktor.

METALLURGLARNING HAQQI BUYURMADI

Hayotda kechayotgan yaxshi va yomon voqea-hodisalar uchun har kimning o'zi sababchidir. Zotan, kimdir ezgulik ortidan ergashib, baxt manziliga yetsa, yana kimdir gumrohligidan, fikri ojizligidan taqdiriga o'zi qora chiziq tortadi. Yaqinda asosan "O'zmetkombinat" AJda ishlaydigan kishilar korxonaga mulkini o'g'irlab, boylik orttirmoqchi bo'lishdi. Biroq ularning jinoyatlari fosh etilib, sud oldida qilmishlari uchun javob berishdi.

JINOIY KELISHUV

"O'zmetkombinat" AJning Temir yo'l xizmati temir yo'l tuzuvchisi Sherboy Muratov (maqoladagi barcha ism-shariflar o'zgartirilgan) Texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'linmasida ishlaydigan Alijon Bahromov, Temir yo'l xizmati navbatchi dispetcheri Mirza Majitov hamda Valijon Djiyanov bilan oldindan jinoiy til biriktiradi. Ular kombinatda o'g'irlik qilib mo'maygina daromad olishga kelishib oladilar.

2023-yil 10-apreldan 11-aprel kuniga o'tar kechasi soat taxminan tungi ikkilarda kombinatning mulkini o'g'irlashga kirishadilar. Ular belgilangan reja asosida Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasining temir yo'l vagonidagi to'rtburchak po'lat yarim tayyor mahsulotlarini o'zlashtirmoqchi bo'lishadi. Sherboy Muratov Texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'linmasida navbatchilar brigadasi boshlig'i Norboy Inomov orqali "Howo" rusumli yuk avtomashinasi haydovchilari Hasan Marifov va Rizo Abdulazizovni ham bu ishga jalb qiladi.

REJADAGIDEK BORDI, BIROQ...

Mirza Majitov Marten stansiyasida turgan temir yo'l platforma vagonini o'z joyidan boshqa joyga olib o'tish vaqtida Temir yo'l xizmati navbatchilik boshlig'i Shavkat Muradovni o'g'irlikni unga bildirmaslik maqsadida chalg'itib turadi. Shu vaqtda Valijon Djiyanov platforma vagonini Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasiga olib boradi. Bu bo'linmada kran boshqaruvchisi Ruzi Ganiyevning boshqaruvidagi kran yordamida bahosi 14 321 AQSH dollarilik og'irligi 27 tonna 816 kg, 76 dona 120x120 hajmli yarim tayyor po'lat mahsulotlarini Rizo Abdulazizovning boshqaruvidagi "Howo" rusumli yuk avtomashinasiga ortiladi.

Ushbu yarim tayyor po'lat mahsulotlarini yashirin ravishda kombinat hududidan olib chiqish maqsadida texnogen chiqindilarni avtomashinadagi yarim tayyor po'lat mahsulotlarining ustiga ko'rinmaslik uchun yukla-

nadi. Bu yuk "O'zmetkombinat" AJdan olib chiqilganidan so'ng haydovchi Rizo Abdulazizov jinoiy sherigi Hasan Marifov bilan birga Bekobod shahar Al-Xorazmiy MFY hududida joylashgan omborxonaga olib borishadi. Keyinchalik jinoyat izlarini o'z vaqtida yashirish maqsadida bu yarim tayyor mahsulotlar Toshkent shahar Sergeli tumanida joylashgan "Izza" bozoriga olib boriladi.

Shu bozorda noma'lum shaxsga ushbu yarim tayyor po'lat mahsulotlari 47 600 000 so'mga sotiladi. Shundan so'ng pullar jinoyatchilar o'rtasida taqsimlab olinadi.

XABARLARI BO'LSADA...

Shavkat Muradov 2023-yil 11-aprel kuni mazkur jinoyatdan xabar topadi. Jinoyatchilar unga ham daromaddan bir qismini taklif etishadi. Biroq u pulni olmaydi. Afsuski u bu jinoyat haqida o'z vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki "O'zmetkombinat" AJning mas'ul xodimlariga xabar bermaydi.

Alijon Bahromov kombinat ishchisi Sherboy Jahonovga qo'ng'iroq qilib, undan temirlarni chiqarishda tarozida yordam berishini so'raydi. Sherboy Jahonov rozi bo'lmaydi. Biroq u ham mazkur jinoyatdan xabar topsada bu haqda hech kimga bildirmaydi.

Har qanday jinoyat jazosiz qolmaganidek bu jinoiy ish ochilganidan so'ng uning ishtirokchilarining barchasi sud oldida javob berishlariga to'g'ri keldi.

QILMISHLARIGA YARASHA JAZO OLISHDI

2024-yil yanvar oyining 11-kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi, o'z binosida, ochiq sud majlisida ushbu jinoiy ishni ko'rib chiqdi.

Sud jazo tayinlashda, sudlanuvchilarning

shaxsini, ish bo'yicha yetkazilgan moddiy zararlar o'zni to'liq qoplanganligini, ularning qilmishidan pushaymondaligini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi kabilarni hisobga olib hukm chiqardi.

Alijon Bahromov, Sherboy Muratov, Norboy Inomovga 5 yil muddatga, Rizo Abdulazizov, Hasan Marifov, Ruzi Ganiyev, Valijon Djiyanov, Mirza Majitovga 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Ularning 102 kun qamoqda saqlangan har bir kunini ozodlikni cheklash jazosining bir kuniga tenglashtirib hisoblab, tayinlangan jazodan chegirib tashlandi. Shuningdek, bu sudlanuvchilar yashash joylarini u yoki bu sabab bilan sutkaning soat 21:00 dan 06:00 gacha tark etish taqiqlandi. Sudda ularga nisbatan qo'llanilgan "qamoqqa



olish" tarzidagi ehtiyot chorasi bekor qilinib, sud zalidan ozod qilindilar.

Sherboy Jahonov, Shavkat Muradov O'zbekiston Respublikasi JKning 241-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilishdi. Biroq JKning Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish to'g'risidagi 70-moddasiga asosan ular tayinlanishi lozim bo'lgan jazodan ozod qilindilar.

X. XALIKOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi raisi.

QISQARTIRISHGA TUSHGANLARNING QANDAY HUQUQLARI BOR?

Turli sabablarga ko'ra ishxonalarda qisqartirish bilan bog'liq muammolar ro'y berib turadi. Qisqartirishga tushgan xodimlar ish joyida qandaydir huquqlarga ega bo'ladimi?

S. Shermonov.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 165-moddasi birinchi qismiga asosan texnologiyani, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishiga, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqartirishiga bog'liq bo'lgan tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi sababli mehnat shartnomasi bekor qilinayotganda ish beruvchi birinchidan xodimni 2 oy oldin yozma shaklda (imzo qo'ydirib) ogohlantirishga majbur.

Ikkinchidan shu moddaning 4-qismiga asosan xodimni ogohlantirish muddati ichida, unga boshqa ish qidirish uchun haftada kamida bir kun shu vaqt uchun ish haqi saqlangan holda ishga chiqmaslik huquqi beriladi.

Uchinchidan, mehnat kodeksining 144-moddasiga asosan agar mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasiga doir ishni xolisona sabablarga

ko'ra davom ettirish imkoni bo'lmasa, ish beruvchi xodimga uning mutaxassisligi va malakasiga muvofiq keladigan boshqa ishga o'tkazishni, bunday ish bo'lmagan taqdirda esa ish beruvchida mavjud bo'lgan boshqa ishni



taklif etishi shart. Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ushbu Kodeks 143-moddasining ikkinchi qismida, 161-moddasi ikkinchi qismining 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyat ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Ya'ni siz bilan mehnat shartnomasi mehnat

kodeksining 161-moddasi 2-qismi bilan bekor qilinayotgani sababli sizga ish beruvchi ish taklif qilishi shart.

To'rtinchidan, mehnat kodeksining 100-moddasiga asosan texnologiyani, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi sababli bekor qilingan taqdirda ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqining ishdan bo'shatish nafaqasi hisobga olingan holda, biroq ko'pi bilan ikki oyga saqlanib qolishi kafolatlanadi.

Beshinchidan, mazkur moddaning 4-qismiga ko'ra agar xodimlar mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin o'ttiz kalendar kun ichida mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ular mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma bo'yicha uchinchi oy uchun ham avvalgi ish joyidan o'rtacha oylik ish haqini olish huquqiga ega bo'ladi. Ya'ni bu yerda siz 3-oylikni ham olish huquqiga ham ega bo'lasiz.



BOSHQANING TELEFON RAQAMINI RUXSATSIZ TARQATGAN QAMALADIMI?

Boshqalarning telefon raqamini tarqatgan fuqaro qamalishi ham mumkin ekan deb eshitdim. Bu qaysi qonunda belgilangan?

N. Tursunov.

O'zbekiston Respublikasining 547-son qonuniga asosan telefon raqami shaxsga doir ma'lumot hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi 46-prim 2-moddasiga ko'ra shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va tarqatishga nisbatan javobgarlik belgilangan.

Shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik uchun jarima belgilangan. Bunday holatlarda fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, boshqalarning telefonini yig'ib, tarqatishda ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng uni qayta sodir etsangiz to'g'ridan to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortilasiz va jinoyat kodeksining 141-prim 2-moddasiga ko'ra shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima va 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin.

ISH JOYLARIDA SIGARET CHEKKANLIK UCHUN JARIMA QANCHA?

Kombinatda yoki jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning huquqiy oqibatlari haqida tushuncha bersangiz?

M. Alimov.



"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2015-yil 29-dekabrda Qonuniga asosan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 561-modda bilan to'ldirilgan. Unga asosan ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylarda, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida tamaki

mahsulotini iste'mol qilish, bundan tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va xonalar mustasno, eng kam ish haqining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

Ushbu qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 122-moddasida tamaki mahsulotini transportda belgilanmagan joylarda iste'mol qilish tartibi ham belgilandi. Xususan, mahalliy va uzoq masofaga qatnaydigan poezdlarda, daryo kemalarida belgilanmagan joylarda, shahar atrofiga qatnaydigan poezdlarning vagonlarida (shu jumladan tamburlarida), shahar ichida, shahar atrofiga, shaharlardan va xalqaro yo'nalishlarda qatnaydigan avtobuslarda, shuningdek taksilarda, yo'nalishli taksilarda hamda shahar elektr transportida tamaki mahsulotini iste'mol qilganlik uchun eng kam ish haqining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi ko'rsatildi. Havo kemalarida tamaki mahsulotini iste'mol qilganlik uchun eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solinadi.

HAYDOVCHILARGA CHORA KO'RILADIMI?

Bir qancha transport vositalarining haydovchilari to'y marosimida guruh bo'lib harakatlanishini ko'p ko'rganmiz. Ular bu harakatlari bilan boshqa avtomobillarning erkin va xavfsiz harakatiga to'sqinlik qiladi. Boshqalar harakatiga to'sqinlik qiladigan bunday haydovchilarga qanday choralar ko'riladi?

A. Karimov.



Bunday haydovchilarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga asosan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtiriladi.

Ushbu Kodeksning 129-moddasiga ko'ra motosikllar va boshqa transport vositalari haydovchilarining yo'llarda yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi yoki avariya holatini keltirib chiqaruvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashishi bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

ENERGETIK ICHIMLIKLER NIMASI BILAN XAVFLI?

Hozirgi paytda yoshlar o'rtasida energetik ichimliklar iste'moliga o'rganib qolayotganlarni ko'rishimiz mumkin. Uning alkogolli va alkogolsiz xili mavjud. Alkogolsiz energetik ichimlik balog'atga yetmagan yoshlar o'rtasida juda ommalashdi. O'yin-kulguga ruju qo'ygan yoshlar uning xuddi "tetiklashtirganday" xususiyatiga aldanib, bemalol iste'mol qilishda davom etishyapti. O'z ixtiyorlari bilan ulardan voz kecha olmaydigan darajaga kelganlarida esa kech bo'lishini, uning vaqtinchalik "sehrli" ta'sirining salbiy oqibatini xayollariga ham keltirishmayapti.

Energetik ichimliklar ilk bor 1960-yilda Yaponiyada dori vositasi

sifatida yaratilgan. Keyinchalik Yevropa va AQSHni "zabt etgach", biznesmenlar bu mahsulotni ommalashtirish uchun tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalarni qo'shishgan. Natijada u dori emas, aksincha biznesmenlarga katta foyda keltiradigan biroq sog'liqqa zarar yetkazadigan mahsulotga aylanib qoldi.

2014-yil Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti o'smirlar o'rtasida energetik ichimliklar ko'p iste'mol qilinayotgani yuzasidan xavotirli bayonot bilan chiqdi. Hozir dunyoning qator davlatlarida bunday mahsulotlar sotuviga taqiqlar o'rnatilgan. O'zbekistonda ham bu borada ma'lum qonuniy cheklovlar amalda.

SHIFOKORLAR NEGA BU MAHSULOTDAN TIYILISHNI TAVSIYA QILISHADI?

YOMON ASORATLARGA OLIB KELADI

Energetik ichimliklar me'yordan ortiq va surunkali iste'mol qilinsa, bosh miya, markaziy nerv tizimi, bo'g'imlar va boshqa a'zolarga jiddiy ziyon yetadi. Tarkibidagi kofein - psixostimulyator modda insonga vaqtinchalik tetiklik hissini bag'ishlab, charchoqni aritishi, aqliy faoliyatni kuchaytirishi mumkin, ammo ma'lum bir vaqtdan so'ng, masalan, 1 - 1,5 soat o'tgach, inson organizmida horg'inlik battar kuchayadi, bosh og'rig'i paydo bo'ladi va nafaqat aqliy, balki jismoniy faoliyat ham susayadi.



Bunday mahsulotlarni tez-tez iste'mol qiluvchilarda keyinchalik bo'g'imlarda og'riqlar paydo bo'la boshlaydi va ma'lum bir asoratlarga olib keladi. O'smirlar va bolalar hafta mobaynida kofein iste'molini 60 mg.dan oshirmaslik kerak.

Bitta energetik ichimlik tarkibida esa o'rtacha 30 mg kofein mavjud. Energetiklar ichish 18 yoshga to'lmagan bolalar va o'smirlar, homilador va emizuvchi ayollar, yurak-qon tomir xastaliklariga chalingan hamda qandli diabeti bor bemorlarga tavsiya etilmaydi.

ODAM BU ICHIMLIKKA BOG'LANIB QOLADI

Energetik ichimliklar me'yoridan ortiq iste'mol qilinganda qonda glyukoza miqdori ko'payib ketadi. Shakarning ortiqcha qismi yog'ga aylanadi



va insulin organizmida ko'payib, qandli diabetga olib keladi. Eng yomoni, odam bu ichimlikka beixtiyor bog'lanib qoladi.

Qolaversa, energetiklarni ko'p iste'mol qilish inson tanasidagi hujayra va to'qimalarga jiddiy zarar yetkazib, jigar, yurak qon-tomir kasalliklariga olib keladi.

SOG'LIQQA SALBIY TA'SIR KO'RSATADI

Yuqori konsentratsiyalangan quvvatbaxsh ichimliklar tarkibidagi taurin - energetik jarayonni jadallashtiruvchi va nerv tizimini rivojlantiruvchi modda. Uning inson organizmi uchun sutkalik me'yori - 400 mg. Ayrim energetiklar tarkibida esa bu modda 2 barobargacha oshiq bo'ladi va o'smirlar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday ichimliklar qisqa muddatda organizmga zararli ta'sir ko'rsatadi. Lekin tarkibida ortofosfat kislotasi borligi uchun buni sezmaydiz.

Masalan, 45 daqiqadan so'ng dofamin ishlab chiqarilishi ortib, bosh miyada rohatlanish, qoniqish markazini qo'zg'atadi. 70-80 daqiqadan keyin aks ta'sir qilish vaqti boshlanib, organizmida holsizlik holatlari yuzaga keladi.

Qolaversa, energetik ichimliklar asab tizimini ishdan chiqaradi. Ruhiiy kasalliklarga chalinish xavfi ortadi, odamlarda tajovuzkorlik kuchayadi. Bolalarning zehni o'tmaslashib, darslarni o'zlashtirishi pasayib ketishi, nogiron, aqli zaif farzandlar tug'ilishi ayni shunday illatlarning ham asorati, desak xato bo'lmaydi.

HAYOT UCHUN XAVFLI

AQSHlik tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra energetik ichimliklar yurakdagi QT intervali (yurakning elektrik sistolasi)ni o'rtacha 2 soatda 10 millisoniyaga oshiradi. Agar millisoniyalarda o'lchanadigan ushbu vaqt oralig'i haddan tashqari uzun yoki kalta bo'lsa, yurak urushida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu esa hayot uchun xavfli bo'lgan aritmiyaga olib kelishi mumkin.

SUVSIZLANISHGA OLIB KELADI

Energetik ichimliklar ko'pincha sport musobaqalarida ishlatiladi, chunki kofein sportchilarning ish faoliyatini yaxshilashi mumkin. Shu bilan birga, bu siydik va natriy miqdorini oshiradi, bu suvsizlanish va elektrolitlar yetishmovchiligiga olib keladi.

Shuning uchun uzoq vaqt davomida jismoniy faollik paytida, ayniqsa, issiq sharoitda energetik ichimliklar ichmaslik kerak.

KO'PROQ AZOB CHEKISHADI


Energetik ichimliklar ichadigan bolalar kelajakda boshqalarga qaraganda ko'proq azob chekishadi. Ma'lum bo'lishicha, energetik ichimliklarga bog'lanib qolgan bolalar balog'at yoshida ruhiy kasalliklarga ko'proq duchor bo'lishar ekan.

Shifokorlarning ta'kidlashicha, bolalikdagi energetik ichimliklar kelajakda depressiya, tashvish, joniga qasd qilish fikrlariga olib keladi.

INSONGA QANDAY TA'SIR QILADI?

Energetik ichimlik tarkibidagi aromatizatorlar, shakar o'rniga shakarli koler va sintetik (sun'iy) shirin ta'm beruvchi, ya'ni shakarining o'rnini bosuvchi (Ye 951 aspartam) - asab tizimiga qo'zg'atuvchi ta'sir o'tkazadi, yog' to'qimasini ko'payishiga olib keladi, tish emalini yemiradi, og'iz bo'shlig'idagi kislotashqor balansining buzilishiga sabab bo'ladi.

Rang beruvchi moddalar, konservantlar (Ye 211 benzat natriy) oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqaradi.



Taurin deb ataladigan modda borligi - energetik ichimlikni xuddi tengi yo'q kuch-quvvat beruvchidek ko'rsatadi, chunki u mushak to'qimasiga ta'sir etadi, bundan tashqari, oshqozonda kislotali muhitni kuchaytiradi.

Kofein miqdori ko'pligi sabab, tanaga kuchli quvvat berib, yurakni yuqori ritmda ishlashiga, qon bosimining ko'tarilishiga, natijada yurak charchab, yurak qon-tomir kasalliklari rivojlanishiga moyillik tug'diradi.

Alkogolli turida kofein ham aralastirilishi uning salbiy ta'sirini kuchaytiradi, ya'ni bu ikkita bir-biriga qarama-qarshi ta'sir etuvchilar natijasida alkogol miya faoliyatini pasaytirsa, kofein qo'zg'atuvchi ta'sir etadi. Shu tufayli organizm "tinchlanish" yoki "harakat qilish" kabi qarama-qarshi "buyruqlar" orasida qoladi. Bu esa, keyinchalik kuchli stress va ruhiy buzilishlarga olib keladi.



ENERGETIK ICHIMLIKLER O'RNIGA

Energetik ichimliklar o'rniga tabiiy sharbatlar, mevalardan kompotlar, meva qoqilardan tayyorlangan damlamalar, xushbo'y choylar, limonli ko'k choy kabilar ichilsa, ulardagi biologik faol moddalar salomatlik uchun koni foyda. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlar organizmini energetik ichimlik bilan zararlagandan ko'ra, foydali ichimliklar iste'mol qilishsa, jismonan sog'lom va ruhan tetik bo'lishlari shubhasiz.

Sog'lom va uzoq umr ko'rishni hohlasangiz, unda tabiiy mahsulotlarni tanlang!

Energetik ichimliklarga mute bo'lib qolmang!

Sahifa materiallarini shifokor Mirzaburxon DO'SMURODOV tayyorladi.

FUTBOL: SUPERLIGA

MAVSUMGA PUXTA TAYYORGARLIK KO'RILDI

1-mart kuni O'zbekiston Superligasida futbol mavsumi Namangan va Qarshidagi o'yin bilan boshlanadi. 3-mart kuni "Metallurg" Toshkentda "Lokomotiv" bilan bu mavsumdagi dastabki o'yinda yashil maydonga tushadi.

"Metallurg" mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rdi. 2024-yildagi ilk tayyorgarlik jarayoni 10-yanvarda Bekobod shahrida boshlandi. Bir haftalik mashg'ulotlardan keyin yig'inning ikkinchi qismi Toshkent shahrida davom ettirildi. Shundan so'ng 31-yanvar kuni "Metallurg" jamoasi yangi mavsum tayyorgarligining ikkinchi bosqichini o'tkazish uchun Turkiyaning Antalya shahriga uchib ketdi.

Turkiyadagi bu yig'in "Metallurg"ning mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Antaliyada ob-havo xuddi bahor faslidagidek. Futbolchilarimizning shug'ullanishlari uchun ayni muddao bo'ldi. Yig'in davomida futbolchilarimiz jismoniy tayyorgarliklari, bajargan mashg'ulotlari, o'tkazgan or'toqlik uchrashuvlari mavsumni muvaffaqiyatli o'tkazishda o'z samarasini beradi, albatta.

Mazkur yig'in davomida "Metallurg" futbolchilari Makedoniya, Rossiya hamda Qozo-

g'iston klublariga qarshi bir qator nazorat uchrashuvlarini o'tkazdi.

Jamoamiz birinchi nazorat o'yinini 3-fevral sanasida "Vardar" (Makedoniya) klubiga qarshi o'tkazdi. Bu uchrashuvda



Antaliyadagi yig'indagi o'yinlar o'z nomi bilan nazorat uchrashuvi. Ular jamoamizdagi o'yin holati, futbolchilarning jismoniy holati haqida murabbiylar shtabi xulosa chiqarishi uchun zarur. Aslida bunday uchrashuvlarda natija uchun o'ynalmaydi. Shunday bo'lsada bir narsani aytish mumkinki, futbolchilarimiz o'yindan o'yinga maydonda bir birlarini yaxshiroq tushunib borishdi. Yangi o'yinchilar jamoamizga ko'nikib qolishdi. Klub rahbariyati, murabbiylar shtabi barcha chiziq'larga tajribali o'yinchilarni jalb etishdi. Tarkibda sog'lom va kuchli raqobatni yuzaga keltirishdi. Bu esa har bir o'yinchidan o'z ustida jiddiy

makedoniyaliklar 0:2 hisobida g'alaba qozondilar.

4-fevral kuni esa "Chernomores"

(Novorossiysk) jamoasi bilan o'tkazilgan o'yinda 1:1 hisobi qayd etildi. 7-fevralda esa Qozog'istonning "Yelimay" jamoasiga qarshi maydonga tushgan jamoamiz yana durang o'ynadi - 1:1.

Va nihoyat 10-fevral kuni "Metallurg" navbatdagi nazorat o'yinida Qozog'istonning yana bir jamoasi "Jetisu" bilan o'ynab (2:1) g'alabaga erishdi.

Shuningdek 17-fevralda "Orenburg" (Rossiya) 0:3 klubi bilan nazorat uchrashuvida ishtirok etdi.



ishlashni, asosiy tarkib o'yinchisiga aylanish uchun har bitta o'yinda bor kuch va mahoratini ishga solishni talab etadi. Raqobat bor joyda esa o'sish bo'ladi.

SUPERLIGA-2024

BIRINCHI DAVRA O'YINLARI TAQVIMI

1-TUR

1-mart, juma

"Navbahor" - "Dinamo"
"Nasaf" - "Olimpik"

2-mart, shanba

"Bunyodkor" - "Qizilqum"
"So'g'diyona" - "Neftchi"

3-mart, yakshanba

OKMK - "Andijon"
"Lokomotiv" - "Metallurg"

4-mart, dushanba

"Surxon" - "Paxtakor"

2-TUR

8-mart, juma

"Metallurg" - "So'g'diyona"
"Paxtakor" - "Nasaf"

9-mart, shanba

"Navbahor" - OKMK
"Olimpik" - "Lokomotiv"

10-mart, yakshanba

"Andijon" - "Bunyodkor"
"Dinamo" - "Neftchi"

11-mart, dushanba

"Qizilqum" - "Surxon"

3-TUR

14-mart, payshanba

"Lokomotiv" - "Paxtakor"

15-mart, juma

"Neftchi" - "Metallurg"
"So'g'diyona" - "Olimpik"

16-mart, shanba

"Surxon" - "Andijon"
"Nasaf" - "Qizilqum"

17-mart, yakshanba

OKMK - "Dinamo"
"Bunyodkor" - "Navbahor"

4-TUR

28-mart, payshanba

"Dinamo" - "Metallurg"

29-mart, juma

OKMK - "Bunyodkor"

"Qizilqum" - "Lokomotiv"

30-mart, shanba

"Andijon" - "Nasaf"
"Paxtakor" - "So'g'diyona"

31-mart, yakshanba

"Navbahor" - "Surxon"
"Olimpik" - "Neftchi"

5-TUR

4-aprel, payshanba

"Lokomotiv" - "Andijon"

5-aprel, juma

"Bunyodkor" - "Dinamo"
"So'g'diyona" - "Qizilqum"

6-aprel, shanba

"Surxon" - OKMK
"Nasaf" - "Navbahor"

7-aprel, yakshanba

"Neftchi" - "Paxtakor"
"Metallurg" - "Olimpik"

6-TUR

4-may, shanba

"Andijon" - "So'g'diyona"
"Navbahor" - "Lokomotiv"

5-may, yakshanba

"Bunyodkor" - "Surxon"

6-may, dushanba

"Paxtakor" - "Metallurg"
"Qizilqum" - "Neftchi"

7-may, seshanba

OKMK - "Nasaf"
"Dinamo" - "Olimpik"

7-TUR

11-may, shanba

"Metallurg" - "Qizilqum"
"Olimpik" - "Paxtakor"

12-may, yakshanba

"Neftchi" - "Andijon"
"So'g'diyona" - "Navbahor"

13-may, dushanba

"Surxon" - "Dinamo"

"Nasaf" - "Bunyodkor"

14-may, seshanba

"Lokomotiv" - OKMK

8-TUR

18-may, shanba

"Andijon" - "Metallurg"
"Qizilqum" - "Olimpik"

19-may, yakshanba

"Navbahor" - "Neftchi"
OKMK - "So'g'diyona"

20-may, dushanba

"Surxon" - "Nasaf"
"Dinamo" - "Paxtakor"

21-may, seshanba

"Bunyodkor" - "Lokomotiv"

9-TUR

24-may, juma

"Metallurg" - "Navbahor"
"Olimpik" - "Andijon"

25-may, shanba

"Paxtakor" - "Qizilqum"
"Nasaf" - "Dinamo"

26-may, yakshanba

"Neftchi" - OKMK
"So'g'diyona" - "Bunyodkor"

27-may, dushanba

"Lokomotiv" - "Surxon"

10-TUR

30-may, payshanba

"Navbahor" - "Olimpik"
"Dinamo" - "Qizilqum"

31-may, juma

OKMK - "Metallurg"
"Surxon" - "So'g'diyona"

1-iyun, shanba

"Bunyodkor" - "Neftchi"

2-iyun, yakshanba

"Andijon" - "Paxtakor"

"Nasaf" - "Lokomotiv"

11-TUR

14-iyun, juma

"Qizilqum" - "Andijon"

15-iyun, shanba

"Lokomotiv" - "Dinamo"
"So'g'diyona" - "Nasaf"

16-iyun, yakshanba

"Neftchi" - "Surxon"
"Paxtakor" - "Navbahor"

17-iyun, dushanba

"Metallurg" - "Bunyodkor"
"Olimpik" - OKMK

12-TUR

20-iyun, payshanba

"Lokomotiv" - "So'g'diyona"

21-iyun, juma

"Navbahor" - "Qizilqum"
"Dinamo" - "Andijon"

22-iyun, shanba

"Surxon" - "Metallurg"
"Nasaf" - "Neftchi"

23-iyun, yakshanba

OKMK - "Paxtakor"
"Bunyodkor" - "Olimpik"

13-TUR

27-iyun, payshanba

"So'g'diyona" - "Dinamo"

28-iyun, juma

"Neftchi" - "Lokomotiv"
"Metallurg" - "Nasaf"

29-iyun, shanba

"Andijon" - "Navbahor"
"Qizilqum" - OKMK

30-iyun, yakshanba

"Paxtakor" - "Bunyodkor"
"Olimpik" - "Surxon"



MO'TABAR ONA

- Bolakay uyiga kelib onasiga:
- Bu xatni maktabdagi o'qituvchim berib yubordi - deydi. Onasi xatni o'qib ko'z yoshlarini zo'rg'a tutib turdi. So'ng xatni bolasiga baland ovozda o'qib berdi:
- Sizning o'g'lingiz daho! Maktabimiz uning qobiliyatiga kichiklik qiladi. Shuning uchun siz bolangizga uyingizda ta'lim bering!
Oradan yillar o'tdi. Insoniyat tarixida ulkan ixtiro kashf qilgan inson Edisonning onasi vafot etdi.
Kunlarning birida u onasining javonini ko'zdan kechirayotib qutidagi xatga ko'zi tushdi:
"Sizning o'g'lingiz kaltafahm, tentak. Erta tongdan boshlab uni maktabga kiritmaymiz!"
Buni o'qigan Edison rossiya yig'ladi va o'zining xotira daftariga ushbu bitiklarni bitib qo'ydi:
"Edison tentak bola bo'lgan. Lekin aqlli onasining tadbiri ila dahoga aylandi!"

QALBI - DARYO

- Saxovatda tengsiz, himmatda yagonasiz, - Hotamtoy sha'niga ana shu tarzda hamdu sanolar yog'dirishibdi odamlar.
Ammo bu maqtovlardan Hotamtoy xursand bo'lmabdi, aksincha, tabiati xiralashib, xaloyiqqa yuzlanibdi:
- Sizlar qattiq yanglishmoqdasizlar, - debdi u. - Esdan sira chiqarmang, dunyoda shunday bir zot borki, uning mehru himmati qarshisida biz, faqirlarning oliyjanobliklarimiz baayni kun yorug'ida so'ngan oy misolidir.
- Ul kim ekan? - taajjubi ortibdi odamlarning.
- Ul zot Onadir. Nechuk, dersiz? Shul sabab-dankim, himmatli insonlar o'z molu davlati bilan, nari borsa, bir hokisorning og'irini qo'ldan kelganicha yengil qiladi. Biroq onaizorlar esa, farzandlarini deb hatto o'zlarini lovullab yonib



turgan o't bag'riga uradilar, toshqin sellardan tap tortmaydilar. Ular zurriyodlarining omonligi uchun, shu tariqa, jonlarini ham fido etishga har onda hozirdurlar. Xo'sh, endi ayting, bu dunyoda himmatu mehribonlikda kim yagona ekan?
- Tushundik. Ular onalardir, - deyishibdi xaloyiq Hatamtoy fikriga tan berib.

"QIZIM MENGA ESHIK OCHADI"

Kelin-kuyov turmush qurganlarining birinchi kunida eshikni hech kimga ochmaslikka qaror qilishdi.
Birinchi bo'lib kuyovning ota-onasi yosh oilani ko'rishga keldi. Kelin-kuyov bir-biriga qaradi, kuyov eshikni ochishni istadi, lekin qarorlari tufayli shashtidan qaytdi. Shunday qilib, ota-ona ko'p kutmay qaytib ketishdi.
O'sha kuni biroz vaqtdan keyin kelinning oilasi keldi. Kelin-kuyov bir-biriga termuldi. Kelin ko'zida yosh bilan "bunday qilolmayman", deb eshikni ochdi. Kuyov hech nima demadi...
Yillar o'tib er-xotin birin-ketin to'rt o'g'il ko'rishdi. Keyin to'rt o'g'il ortidan qiz farzand dunyoga keldi. Ota yangi tug'ilgan chaqaloq



uchun katta tantana o'tkazishni istadi va hamma tanishlarini taklif qildi.
Xotini eridan nima uchun 4 o'g'lga bunday tantana o'tkazmay, bu safar bunday qilganini so'radi. Er o'ychan nigoh bilan shunday javob berdi:
- Chunki qizim menga eshik ochadi!

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!



40 ta ot bir ko'ldan suv ichadi. Ichadi-yu ammo hech qachon to'ymaydi. Bu otlar va ko'l haqida eshitganmisiz?

Eng birinchi uning yorug'ligi ko'rinadi, so'ng ovozi eshitiladi, so'ng shamolini his qilaysiz, ana undan keyingina o'zi kirib keladi. Gap nima haqida ketmoqda?

Biz uni har kuni 2 marotaba tatib ko'ramiz, lekin yemaymiz. Bu nima?

O'zbeklarda uning mo'l-ko'lligi muhim, fransuzlarda albatta dizayni, tashqi ko'rinishi muhim, inglizlarda o'zini tutishi, odobi muhim, nemislarda esa son-u sanog'i muhim! Bu nima ekanligini bilasizmi?

Dunyoga dong'i ketgan ushbu muzey qo'riqxonada hududida 54 ta qadimiy me'moriy obida, 40 mingga yaqin nodir eksponat mavjud. Ular yurtimizning uch ming yillikdan uzoqroq tarixidan shohidlik beradi. U joylashgan shahar YUNESKONing "Butun jahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan. Gap qaysi shahar va

undagi mashhur obida majmua haqida ketmoqda?

Piyodalar uchun - 5 sm., yuki bor piyodalarga - 7 sm., yengil avtomobillarga - 26 sm., yuk tashuvchi "Damas" avtomobillariga - 37 sm., "Zil" transportiga - 45 sm., traktorlarga - 60 sm. Mazkur me'yorlar nima uchun edi, agar u buzilsa, natija qanday bo'ladi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Kakao daraxtlari 200 yilgacha yashashi mumkin, lekin bor yo'g'i 25 yil hosil beradi.

Bu "Dahshat" so'zi.

O'rtacha odamning boshida 100 000 dan 150 000gacha soch tolasi bor.

Bir kunda dunyo aholisi yoqadigan neftni hosil qilish uchun tabiatga 1500 yil kerak bo'ladi. Bir yilda yoqadigan neftimizni tabiat yarim million yilda hosil qilgan - unda hattoki insoniyat mavjud emas edi.

Sellofan paketlarda namlik tez to'planadi, bu ularni bakteriyalar uchun ajoyib ko'payish joyiga aylantiradi. Shuning uchun unda kolbasa, pishloq, non, sabzavotlar va mevalar tez buziladi. Quruq ovqatlar - pechene, quritilgan mevalar, tuxum, don kabilarni saqlasa bo'ladi.

Tuya bir haftagacha yemay, 34 kungacha suv ichmasdan yurishi mumkin.

DONOLAR DEYDIKI...

Oldig'a qo'yganni yemak - hayvon ishi, Og'ziga kelganni demak - nodon ishi.

Tiling bilan ko'nglingni bir tut, Ko'ngli va tili aytqon so'zga but.

Inson borki, insonlarning naqshidir, Inson borki, hayvon undan yaxshidir.

Alisher Navoiy.

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir, Har kimki jafu qilsa jafu topqusidir. Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz, Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur.

XANDALAR

Sudya: - Xonim o'g'irlagan bankangizdan nechta pomidor chiqdi.

Ayol: - O'n beshtacha, mayda-chuyda, xolos.

Sudya: - O'n besh sutkaga qamalsin!

Kuyov: - Yana bir banka makkayam bor edi.

Nimaga uxlama-yapsan?

-Internetda o'tiribman.

- Haa, zo'r! Men esa mehmondaman...

- Kimnikida?

- Senikida.

- Jin ursin! Esimdan chiqib qolibsana-u!

